



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

30 NOYABR
№34

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. G’iyosov Ulug’bek Aminjonovich

KONFUTSIY TA’LIMOTI VA UNING JAHON XALQLARI
MADANIYATIGA TA’SIRI 7

2. Noro’chqarov Xushvaqt Eshnazarovich, Tursunov Sherali Yunusovich

“BOBURNOMA” - AFG’ONISTON TARIXINI O’RGANUVCHI
MUHIM MANBA SIFATIDA..... 9

3. Saidumarov Saidislomxon Muzafar o’g’li

O’ZBEKİSTONDA KONFESSİYALARARO MUNOSABATLAR
TARIXI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) 11



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

KONFUTSIY TA'LIMOTI VA UNING JAHON XALQLARI MADANIYATIGA TA'SIRI

G'iyosov Ulug'bek Aminjonovich

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

12-son umumiy o'rta ta'lif maktabi

Tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Konfutsiyning tarixiy shaxs bo'lganligi, uning yaratgan ta'lomi Xitoy madaniyatiga rivojiga asos bo'lganligi keltirilgan. Shuningdek Konfutsiy ta'lomitidagi shaxs tarbiyasiga ham to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Konfutsiy, Xitoy, faylasuf, Chjou, Shitszin, Litszi, falsafa, ta'lifot.

Konfutsiy - Kun Futszi (er.av. 552-479 yillar) yirik Xitoy faylasufi tarixchi va davlat arbobi. U "Konfutsiylik" deb ataluvchi davlat diniga asos solgan shaxsdir. Uning saboqlari va faylasufligi Xitoy, Koreya, Yaponiya va Vietnam xalqlarining o'y-fikri va hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatgan.

Konfutsiylikni davlat mafkurasi darajasiga ko'targan Dun Chjunshuning fikricha, «Barcha mumtoz adabiyotlarning muallifi Konfutsiydir». Bu fikrga qarshi bo'lganlar, «bu holda barcha tarixiy mumtoz asarlar Konfutsiyidan keyin yaratilgan bo'lishi kerak ediku», degan fikrni ilgari surishadi. Ularning fikricha, Konfutsiy faqatgina barcha mumtoz adabiyotlarga sharh bergan xolos. Ular quyidagilardir; «Qo'shiqlar kitobi», («Shi – tszin») er.av birinchi ming yillikda yaratilgan bo'lib, qadimgi xalq poeziyasi namunalaridan iborat. «Tartib kitobi», («LI – Shu») er.av IV – I asrlarda bitilgan va shu bilan birga bir qancha mumtoz adabiyotlarga sharh bergan. Konfutsiyning o'zi tomonidan bayon etilgan kitoblarning asosiy mazmunini beshta oddiy, lekin buyuk insoniy fazilatlar tashkil etadi. Bular: donolik, insoniylik, sadoqat, keksalarni hurmat qilish va jasoratni qamrab oladi.

Xitoyda diniy e'tiqodlar juda qadim zamonlardan buyon shakllangan. Ammo er. av VI – V asrlarda «Monu» shakliga kirgan va keyin dinlarga asos bo'lgan. Konfutsiyning diniy falsafiy tizimi Xitoyning madaniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu tizim qadimgi zamonda kitoblar va rom ochuvchilar maktablarida ta'sis etilgan edi. Konfutsiy Chjou sulolasining imperatori Lu hukmronligi davrida tug'ilib (Hozirgi Shandun viloyati Tseyfu shahrida) faoliyat ko'rsatgan. 22 yoshida u Xitoyning eng kuchli faylasufi va o'qituvchisi sifatida tan olingan. X i t o y d a g i ilm-fan taraqqiyotida Konfutsiy va uning maktabi alohida ahamiyatga ega. Uning Xitoy falsafasi tarixida tutgan o'rnini Suqrotning yunon falsafasi tarixidagi o'rnigagina qiyoslash mumkin. Uning butun dunyoda mashhur bo'lgan nomi „kun“ va „futszi“ so'zlarasi asosida yasalgan „Kun“ hozirgi vaqtida familiyani anglatuvchi so'z bo'lsa, „fu“ faylasuf, „szi“ o'qituvchi ma'nolarini ifodalovchi so'zlardir. Ya'ni Konfutsiy „falsafa o'qituvchisi“ degan so'zlarning familiya maqomini olgan shaklidir. Konfutsiy yashagan davrdan „To'rt asos“ va „Besh asos“ degan ulkan yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. „Besh asos“ Konfutsiyga qadar yaratilgan „Qo'shiqlar kitobi“, „Taomillar kitobi“ („Marosimlar kitobi“), „Rivoyatlar kitobi“ va „Folbinlik kitobi“ („o'zgarishlar kitobi“) singari qismlardan iborat bo'lgan. Lekin bu kitoblarning barchasi konfutsiylik ta'lomitasi asosida qayta ishlangan va Konfutsiy ta'lomitining mohiyatini ochishga xizmat qilib kelgan.

Konfutsiy maktabida to'rt xil qoidaga amal qilingan va bu qoidalar to'rt kitob asosida amalga oshirilgan. 1.Ruhiyat (Shitsin). 2. Til (Shutsin). 3. Siyosat (Litszi). 4. Adabiyot (Yuetsin). U 50 yoshida siyosatga aralasha boshlaydi va hokimiyatda yuqori lavozimlardan birida faoliyat ko'rsatadi. Lekin kelishmovchiliklar va ziddiyatlar sababli siyosatdan uzoqlashishga majbur bo'ladi. 13 yil davomida butun Xitoy bo'ylab sayohatda bo'lib, er.av 484 – yilda Lu podsholigiga qaytadi va



o'qituvchlik ishini davom ettiradi. Konfutsiy ta'limotida tarbiyaga katta e'tibor bergan. Konfutsiy tarbiya kishi hayotida g'oyat katta o'rinn egallashini aytgan. Shuning uchun Konfutsiy falsafasi odam o'z xarakterini o'zgartirishi zarurligi va o'zgarishi mumkinligi haqidagi fikrni ilgari suradi.

„To'rt asos“ esa Konfutsiy „Hikmatlar“idan tashqari, „Menzi“ („Men-muallim“), „Buyuk ta'limot“ va „Oraliq haqidagi ta'limot“ singari Konfutsiy shogirdlarining hikmatli so'zlaridan tashkil topgan. Konfutsiy ta'limoti markazida „muruvvatli zot“ turadi. U hukmron tabaqanining ideal vakili bo'lib, Konfutsiy ta'limoti yordamida o'zida jamiyat farovonligini ta'minlaydigan va ma'naviy asoslarini ifodalay oladigan oliyanob fazilatlarini shakllantirgan.

Konfutsiy, avom xalq aristokratlar va donishmandlarga itoat etishi kerak deb hisoblagan. Imperatorni «Osmon o'g'li» deb bilgan va unga itoatkor bo'lishni targ'ib qilgan. Konfutsiylik er.av I – asrda davlat tomonidan e'tirof etilgan va ta'limot mavqeiga ega bo'lган. Konfutsiylik eramizning IX asridan boshlab buddizm ustidan g'alaba qozongan. XI – asrga kelib daosizmni jamiyat ma'naviy hayotidan siqib chiqargan. Uning ta'limotini Men Tszi (er.av 371 - 289) davom ettirgan. Manbalarda Xitoyning qadimgi madaniyati qo'shni xalqlar – Mo'g'uliston, Manjuriya, Tibet, Koreya va ayniqsa Yaponiyaning keng hududlarida yashagan ko'pgina xalqlar madaniyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatganligini ko'rish mumkin.

Konfutsiy „Hikmatlar“i „muruvvatli zot“ning shunday yuksak insoniy fazilatlarini aks ettiradi. Aniqroq aytsak, bu zot oliv hukmdorga nisbatan chuqur ehtiromli, xalqqa esa muruvvatli bo'luvchi, butun kuch va qobiliyatini jamiyat oldidagi burchini oqlashga, milliy urf-odat va an'analarning to'la-to'kis bajarilishini ta'minlashga sarf etuvchi kishidir. Shuning uchun ham uning o'gitlari, pand-u nasihatlari Xitoyda hanuzga qadar e'zozlanib va qadrlanib keladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. K. Nazarov "Jahon falsafasi tarixidan lavhalar".
2. V.I. Abdiyev. «Qadimgi Sharq tarixi».
3. Lyuy Chjen 70 – yil Xitoyning qisqacha tarixi.
4. Abu Rayhon Beruniy. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar".



**"BOBURNOMA" - AFG'ONISTON TARIXINI O'RGANUVCHI
MUHIM MANBA SIFATIDA**

Noro'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti katta o'qituvchisi

Email: xushvaqt.norqochqarov@mail.ru Tel: (91) 9100221

Tursunov Sherali Yunusovich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion
rivojlanish instituti o'qituvchisi

Tel: (97) 8459587

Annotatsiya: Maqolada Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan "Boburnoma" asarining xalqlar hayotida xususan, Afg'onistonidagi XV-XVI asrlarda yashagan afg'on va boshqa turli xalqlar, turli millat va elatlarning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti, etnografiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari Afg'oniston hududidagi Kobul, Qandahor, G'azna va boshqa shaharlar haqida ma'lumotlar beruvchi muhim manba ekanligi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Afg'oniston, afg'on xalqi, millatlar, Zahiriddin Muhammad Bobur, "Boburnoma", Movarounnaxr, Xuroson, Afg'oniston, Hindiston, etnogenezi, etnografiyasi.

XV-XVI asrdagi Movarounnahr, Xuroson, Afg'oniston va Hindiston hududida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, tarixiy voqealarni o'rganishda bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur yaratgan shoh asar «Boburnoma»[1] tom ma'nodagi entsiklopedik asar. Uning originalligi shundaki, asarda muallif asosan o'zi ko'rigan-kechirgan, bilgan narsalarni yozadi. Eshitgan yoki adabiyotlardan foydalilanilgan bo'lsa, albatta, izohlab o'tadi.

«Boburnoma» asari biz o'rganayotgan Afg'oniston tarixini o'rganishda ham eng muhim manbalardan hisoblanadi. Bu asarda XV-XVI asrlardagi Afg'onistonidagi shaharlar va ularning kelib chiqishi tarixi, tarixiy nomlari, shaharlarning boshqaruv usullari, siyosiy va ma'muriy tuzilishi, iqtisodiy sharoiti, geografik joylashuvi, iqlimi va tabiatni haqida juda ko'plab ma'lumotlar, shuningdek, bu shaharlarning aholisi, ularning madaniyati, an-analari va urf-odatlari, marosimlari, turmush sharoiti, xo'jaligi haqida ham juda ko'plab muhim ma'lumotlar keltirilgandir. Bu asarning boshqa manbalardan yana bir farqi shundaki, asar muallifi o'zi ko'rigan, bilgan, eshitib, sinab ko'rigan joy, voqeа, vaziyat, holat haqida aniq va ishonchli ma'lumotlar keltirilgan. Chunki Zahiriddin Muhammad Bobur Afg'onistonga o'tgach, u yerda bir muddat o'z hukmronligini o'rnatdi va afg'on shaharları, afg'on qabilalari, qavm va urug'lari, aholisi haqida o'rganib, ko'riganlarini o'z asaiga kiritgan.

Taomni forsiyzabon oshpaz qiz-u ayollar pishirgan, dasturxonaga tortish vazifasi hind qizlariga topshirilgan. Podshoh oilasi dasturxonidagi har bir taomlarni oldin turkiy qizlar tatib ko'rigan. Bu bilan Boburshoh o'z tasarrufidagi barcha millatlarga hurmat-ehtiromini bildirgan.

«Boburnoma»da Afg'onistonning Hirot, Qandahor, Qobul, Balx, G'azna va boshqa shaharlarining XV-XVI asrlardagi tavsifi va shuningdek, kelib chiqish tarixi, aholisining mashg'uloti haqida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan va shaharlar etnogenezi va etnografiyasi haqidagi ma'lumotlari ham g'oyat qimmatli va qadrlidir. Bobur shaharlarning geosiyosiy, ayniqsa, harbiy strategik va harbiy geografik o'rni va mavqeiga juda katta e'tibor bergen va tasvirlay olgan.

Bobur Movaraunnahr, Xuroson, Afg'oniston, Hindistonidagi o'zi ko'rigan, bilgan shaharlarning iqtisodiy geografik va siyosiy geografik o'rinalarini tahlil qilgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan, o'sha davrda juda qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan Kobul va Qandahor shaharlarini ta'riflab quyidagicha yozadi: «Xurosandan Hindistonga boradigan karvon yo'llarida ikkita shahar bor. Biri -Kobul, yana biri - Qandahor. Shimol tomonidan Qoshg'ar, Farg'ona, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Balx, Hisor va Badaxshondan karvon Kobulga keladi, g'arb tomonidan - Xurosandan karvon Qandahorga keladi.

Kobul Hindiston bilan Xuroson o'rtasidagi vositachidir. Bisyor yaxshi savdoxonadir. G'azna shahri va G'azna viloyati kichkinagina joydadir. Bu yerlarni Zabuliston deb ham atashadi. G'azna viloyatida atigi to'rt-besh tegirmon suv bor. G'azna shahri va uning atrofidagi qishloqlar ana shu suvdan ichadi va ekinlarini sug'oradi. Yana boshqa qishloqlar korizlardan suv ichadi. Sulton Mahmud tomonidan qurilgan to'g'onlar Shahobiddin Guriy tomonidan buzib tashlangan, natijada



hozirgi kunda suv tanqisligi sezilmoqda. Men ushbu to‘g‘onlarni tiklash uchun pul ajratdim. O‘nlab, yuzlab shaharlari va qal’alariga ega bo‘lgan hukmdorlarning shunday ko‘rimsiz ovloq joyni poytaxt etib tanlaganliklarini hech aqlimga sig‘dirolmayman”. Demak, Boburning fikricha, G‘azna shahrining mikrogeografik, makrogeografik, mezogeografik o‘rni uning poytaxt bo‘lishi uchun to‘g‘ri kelmaydi [2].

Manbada shuningdek Zahiriddin Muhammad Boburning Afg’onistonda amalga oshirilgan ishlari, qurdirgan inshoat va bog’lari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

“Bobur - Sharqning Yuliy Sezaridir!” (Manstyuart Elfinston, tarixshunos olim). Bu fikrga shubha yo‘q. Lekin, asrlar davomida Bobur va u asos solgan Boburiylar sultanatining “Buyuk mo‘g‘ullar imperiyasi” deb atab kelinayotgani ajablanarli hol. Hindistonda tahsil olish jarayonida Temuriy shajaraning yettinchi bo‘g‘inida dunyoga kelgan, Hind sari noiloj yuzlangan Mirzo Boburning ziddiyat va qiyinchiliklarga g‘oyatda to‘la taqdirini yanada chuqurroq o‘rganishga muvaffaq bo‘ldim.

Boburning yozma nutq haqidagi mulohazalari borasida o‘g‘li Humoyunga yozgan maktubi ahamiyatlidir. Ushbu nomada hukmdor ism imlosi va ma’nosiga e’tibor berish, ota-onaning farzandga munosib ism berishdagi farzi haqida, xusnixat kabi masalalarga o‘g‘lining diqqatini tortadi. Farzandining xatidagi imlo xatolarini tuzatib tanbeh beradi. Boburning ushbu maktubi ta’bir joiz bo’lsa avlodlarga qaratilgan maktub bo‘lib, tilni qadrlashga, unda to‘g‘ri foydalanishga chorlaydi.

Asarda biror tarixiy voqeа bayonidan oldin yoki bayon jarayonida chekinilib, shu voqeа yuz berayotgan joy tasvirlanadi. Natijada Bobur zamonidagi Movarounnaxr, Xuroson, Afg’oniston, Hindiston o‘lkalari, ulardagи ko‘plab viloyatlar, shaxar va kishloqlarning tugal manzarasi: yer-suv va tog’-u cho’llari, dala-dashtlari, ob-havosi, nabototi, odamlari, qabila va xalqlarning urf-odati, turmush tarzi, kiyinishi, ovqatlarini, tili, shevasigacha bayon etiladi. Binobarin, bunday o‘rinlarda Bobur nafaqat iste’dodli shoир va yozuvchi, ayni paytda sinchkov va bilimdon olim, jug’rof, etnograf, tabiatshunos, tilshunos, san’atshunos sifatida xam ko‘rinadi.

«Boburnoma» Hindiston tarixini ham o‘rganishdagi muhim manba hisoblanadi, chunki Bobur Afg’onistondan so‘ng Hindistonga o’tib ketgan edi va bu yerda Boburiylar imperiyasiga asos solgan edi. Boburiylar Hindistondako’plab ishlarni amalga oshirdi. Asrlardan beri butun jahon ahlini lol qoldirib kelayotgan Lal Qal’adagi Toj Mahal yodgorligi Shoh Jahon davrida qurilgan bo‘lib, bunga 28 yil Movarounnahr va Xurosuning eng atoqli minglab usta-me’morlarining xizmatlari singgan. Boburning o‘zi ham Hindistonda juda ko‘plab ishlarni amalga oshirdi. «Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o‘zgarishlar sodir bo‘ldi, me’morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha taraqqiyot yuz berdi» - degan edi buyuk hind ma’rifatparvari-Javaharlal.Neru [2].

Albatta XV-XVI asrlarda Afg’onistonda hududida yashaga turli millatlar va urug’-qabilalar hamda afg’on-pushtun qabilalari haqida “Boburnoma” dan juda ko‘p ma’lumot va jumlalardan misollar keltirish mumkin. Ayniqsa Afg’onistondagi shaharlar haqida ham yana ko‘plab ma’lumotlar taqdim etish mumkin. Bu esa butu boshli bir ilmiy-tadqiqot ishi hisoblanadi. Ushbu asarning manbaviy ahamiyati eng muhim jihat shundaki, unda keltirilgan ma’lumotlarning barchasi muallifning o‘z ko‘zni bilan ko‘rgan-kechirganlari va ba’zi voqealar orasida Zahiriddin Muhammad Boburning o‘zi ham bevosita ishtirokchi ekanligidadir. Bu esa manbaning ishonchliligin oshiruvchi omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. “Boburnoma”. M.Sale tarjiması, Toshkent -1993.
2. Z.Rayimjonov, I.Xurramov Bobur - buyuk shaharshunos olim. “Ma’rifat” gazetasi, 2008



**O'ZBEKISTONDA KONFESSIYALARARO MUNOSABATLAR
TARIXI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI)**

Saidumarov Saidislomxon Muzafer o'g'li
O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi magistranti

Annotatsiya: maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkistonda yuz bergan konfessiyalararo munosabatlar haqida ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: konfessiya, bag'rikenglik, dinlararo munosabatlar, diniy bayramlar

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo mintaqasidagi konfessional munosabatlar tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Mintaqaga Chor Rossiyasi qo'shinlarining kelishi va migratsiya jarayonlarining boshlanishi musulmonlarni boshqa din vakillari, xususan xristianlar va yahudiylar bilan muloqot qilishlariga olib keldi. Rus bosqinchilarining yurtimizni egallab olishi oqibatida an'anavaiy boshqaruv tizimi tugatilib islom dinining siyosiy ahamiyati yo'qoldi. Buning natijasida yurtimizda noislomiy diniy konfessiyalar ko'paydi va ba'zilarining mavqeい kuchayib bordi. Bunday sharoitda musulmonlar uchun boshqa din vakillari bilan munosabatga kirishish yangilik emas edi.

Manbalarda qayd etilishicha Turkistonda noislomiy konfessiyalar ko'payganidan boshlab to 1911-yilgacha xristianlar 128 % ga, yahudiylar 127 % ga, aholining 95 % musulmon bo'lganlar soni esa tabiiy o'sish hisobiga 19.4 % ga ko'paygan.¹ Bunda xristianlar deyilganda ham pravoslav ham katolik yo'naliishiga mansublar alohida tushiniladi. Pravoslavlар 128 % ga, katoliklar esa 41 % ga oshgan.

Ruslarning bostirib kelishidan boshlab Turkistonda keng tarqala boshlagan noislomiy konfessiyalardan biri – xristianlik dini bo'lib, uning tarqalishi ruslar va rusiy zabon xalqlarni ko'chirib keltirilishi bilan bog'liq. Xristianlik dini rus hokimiyati tomonidan himoya qilinardi. Ruslar va rusiy zabon xalqlarni ko'chirib keltirish va o'lkada xristian dinini yoyishdan maqsad Chor hukumati o'ziga shu yerda kuchli tayanadigan insonlarni yetishtirish edi. Islomning xristian konfessiyalari bilan munosabatlariga kelsak, albatta, bиринчи navbatda, uning rus pravoslavligi bilan dinlararo va etnik konfessiyaviy aloqalarini ta'kidlash lozim. Musulmonlar pravoslav xristianlarni Chor Rossiyasidagi "hukmron" dinning tarafdoरlari ekanligini, bu dinning alohida, boshqalardan farqli va imtiyozli maqomga ega ekanligini juda yaxshi tushunardi.

O'zgadir vakillar bilano o'rta dagim muammolar ziddiyatlarsiz hal qilingan. Bungabag'rikenglikning yorqin namunasi sifatida qarash mumkin. Masalan, turli dinlarning diniy bayramlari muammosi yuzaga kelganda muammo quyidagicha hal qilingan. Musulmon-xristianlardan iborat hay'at tuzilib, bu hay'atning qarori bilan musulmon ishboshchilar xristian ishchilarga xristian bayramlarida dam olish kunlarini bergenlar.² Musulmon ishchilarga diniy bayramlarda esa xristian ish beruvchilar shunday huquq bergenlar. Musulmonlarning aksariyati boshqa din vakillariga, asosan xristianlarga toqat bilan yashabb kelganlar. Turkiston musulmon aholisining ba'zilari qiziqqanliklaridan xristian ibodatxonalarda xizmat qilganlar, ya'ni ular uchun ibodat joylarini qurishda ishtirot etgan, shuningdek xristian adabiyoti bilan ham tanishganlar. Buni musulmonlarning ulardan hech qanday dushmanlik sezmaganliklari deb tushunsa bo'ladi. Uning ustiga bu holatga har kungi muloqotda bo'ladigan xalqlarning dinini tushinishga intilish deb qaralsa bo'ladi.

Turkiston rahbariyati tomonidan tashkillashtirilgan konfessial darajasidagi muloqot faqat rasmiy xarakterga ega bo'lgan. Musulmonlar "quvg'inga uchragan" ba'zi sektalarga ham yordam qo'lini cho'zganligini tarixdan ma'lum, bu ularning bag'rikengligidan darak beradi.

Pravoslav ruhoniylardan tashqari katolik ruhoniylariga ham Turkiston o'lkasida alohida ehtirom ko'rsatilgan. Unga misol tariqasida Rossiya imperiyasidan o'lkadagi xristianlarga 1902-yilda nazoratchi bo'lib tayinlangan Justin Bonaventura Pranaytisga Toshkent shahridan "o'rtasi" dan

¹ O'zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda. Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. T.: Fan., 2009. B.267.

² Лисицкая О. Характеристика источников по истории католицизма в Туркестане (2-я половина XIX в. - 1917 г.). // К истории христианства в Средней Азии. - Т.: Узбекистон. 1998. С. 209-212



tekinga xonodon berilganlini keltirsa bo‘ladi.¹ Xristianlikning deyarli barcha yo‘nalishlariga mansublar tomonidan islomni qabul qilganlarning aksariyatini pravoslavlar tashkil qilgan. Bu mintaqada xristianlarning mutlaq ko‘pchiligini pravoslavlar ekanligi bilan izohlanadi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlarida islom dinini qabul qilganlarga oid ba’zi ishlar mavjud. Xususan, 1909-yilda Samarqand viloyati aholisi - muhojir oilalar Malikov va Pankratyevlar islom dinini qabul qilishgan.² Bundan tashqari manbalarda keltiriladiki, Islom, iudaizm, buddizm va boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilarning xristianlikka o’tish holatlari aniqlanmagan.

Musulmon jamiyati pravoslavlarni shuningdek, boshqa yo‘nalishdagi xristianlarni bag‘rikenglik bilan qabul qilgan. Xristianlarning boshqa konfessiya vakillari bilan munosabatlari diniy, etnik, iqtisodiy va siyosiy omillarga asoslangan o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan.

Chor Rossiyasining ko‘chirib keltirilganlar va mahalliy aholiga nisbatan olib borgan noteng siyosati hammaning o‘z diniy e’tiqodlarini amalga oshirishda sun’iy to‘siqlar yaratadsa, o‘zaro musosabatlarda diniy to‘qnashuv, qarama-qarshiliklar kuzatilmadi. Aksincha, asrlar davomida diniy bag‘rikenglik fazilatlariga ega bo‘lgan Turkiston xalqlari boshqa din vakillari bilan tinch-osoyshta, yaxshi qo‘sni chilik munosabatlarini o‘rnatdilar, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘ydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston poytaxti Toshkent 2200 yoshda. T.: Fan., 2009.
2. Литвинов П.П. Государство и ислам в Русском Туркестане (1865-1917) (по архивным материалам). - Елец: ЕГПИ. 1998.
3. Лисицкая О. Характеристика источников по истории католицизма в Туркестане (2-я половина XIX в. - 1917 г.). // К истории христианства в Средней Азии. - Т.: Узбекистон. 1998.
4. И.В. Волков. Система этноконфессиональных отношений в Русском Туркестане как основа межцивилизационного сотрудничества в Средней Азии. ИСТОРИЯ ИСЛАМА. 2016, Том 7. № 2

¹ Литвинов П.П. Государство и ислам в Русском Туркестане (1865-1917) (по архивным материалам). - Елец: ЕГПИ. 1998. С. 218

² ЛИСИЦКАЯ О. История католических общин в туркестане (вторая половина xix века — 1917 год).- Автореферат дис. канд. истор. наук - Ташкент. 2004. С. 114.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

**Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000